




OLIV TA'LIM TALABALARI BILIMLARINI BAHOLASHDA HALOLLIKKA XAVFLAR



"Aksilkorruptsiya laboratoriyasi" loyihasi
Toshkent, 2023-2024



KIRISH



Ushbu tadqiqot bilan oliy ta'lim muassasalari talabalariga baho qo'yishda korrupsiya muammolari va ularning sabablarini aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ❖ baholash me'yoriy-huquqiy bazasining qisqacha tahlili **(1-bob)**;
- ❖ pedagoglar, ma'muriyat va talabalar baholash kontekstidagi xatti-harakatlari muammolari bo'yicha amaliy ma'lumotlar **(2-bob)**.

Bu boradagi o'rganishlar batafsil bo'lmasa-da, korrupsiya yoki baholashni manipulyatsiya qilish bo'yicha muhim dalillarni taqdim etadi. Tizim talabalarni baholashni manipulyatsiya qilishdan to'liq himoyalanganmagan, bu, birinchi navbatda, manfaatdor tomonlarning (pedagoglar, oliy ta'lim muassasalari ma'muriyati, talabalar, qarindoshlar) baholarni manipulyatsiya qilishga qarshilik ko'rsatmasligi, shuningdek, HEMIS axborot tizimining nomukammalligi bilan bog'liq.

Asosiy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- ❖ barcha manfaatdor tomonlarning baholarni manipulyatsiya qilishga munosabati bo'yicha yana tadqiqotlar o'tkazish hamda pedagoglarning kasbiy mahoratini va o'qituvchilar va talabalarning halolligini oshirish choralari ko'rish;
- ❖ tashqi tashkilotlar tomonidan imtihonlarni baholash/ko'rib chiqish amaliyotini joriy etish hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan akademik halollik ustidan muntazam va shaffof monitoringni o'rnatish;
- ❖ samarali nazoratni ta'minlash uchun HEMIS ma'lumotlar bazasiga va elektron qaydlarga (barcha kiruvchi ma'lumotlar va aralashuvlar jurnali) kirish imkoniyatining aniq tartib-qoidalarini belgilash;
- ❖ plagiatni kamaytirish/oldini olish, jumladan, markaziy ma'lumotlar bazasini takomillashtirish va talabalar matnlarini tekshirishni majburiy holga keltirish choralari ko'rish.



MINNATDORLIK

Oliy ta'limda talabalar bilimini baholashda halollikka tahdidlar omillarini baholash bo'yicha hisobot "Yuksalish" harakati va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, "Mintaqaviy muloqot" Xalqaro nodavlat tashkilotining ekspertlari bilan hamkorlikda hamda Amerika Qo'shma Shtatlari Davlat Departamentining Xalqaro narkotik moddalar va huquqni muhofaza qilish ishlari bo'yicha byurosi (INL) moliyaviy ko'magi ostida tayyorlandi.

Ushbu tadqiqotning asosiy mualliflari **Komol G'afurov** (Oliy ta'lim bo'yicha milliy maslahatchi), **Lyudmila Stayshyunayte** ("Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi menejeri) va **Nigora Saidova** ("Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi koordinatori).

Hisobot mazmunan "Mintaqaviy muloqot" tashkiloti jamoasi ekspertlari **Kventin Rid** va **Darya Zemeseva** tomonidan tahrirlangan.

Mualliflar tadqiqotni tayyorlashda ko'rsatgan yordami uchun quyidagi shaxslarga minnatdorlik bildiradi:



Akmal Burxanov

(Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori)

Goran Klemenichich

("Mintaqaviy muloqot" tashkilotining huquqiy masalalar bo'yicha eksperti, Sloveniya)

Bobur Bekmurodov

("Yuksalish" harakati raisi)

Malika Ahmadova

("Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi assistenti)

Sherzod Saparov

(Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi matbuot kotibi)

Andrey Sgursky

(dizayner)

Bobur Mahmudov

(Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi bosh mutaxassisi)

Bahodir Ergashev

(tarjimon)

Shamshod Yunusov

("Yuksalish" harakatining Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i)

Mualliflar, shuningdek, "Yuksalish" harakatining O'zbekistonning barcha 14 hududidagi bo'linmalariga ma'lumotlarni to'plashda ko'rsatgan yordami uchun alohida minnatdorlik bildiradi.

Petra Gorjup

("Mintaqaviy muloqot" tashkilotining O'zbekistondagi filiali rahbari)

MUNDARIJA

06 "Aksilkorupsiya laboratoriyasi" loyihasi

07 Tadqiqot metodologiyasi

08 1-bob. Baholash uchun huquqiy/me'yoriy baza

08 Uzluksiz baholash

09 Oraliq imtihonlar/testlar

10 Yakuniy imtihonlar

11 Axborot tizimlari (HEMIS)

12 2-bob: Oliy ta'lim baholash tizimida nohalollik muammolari, ularning sabablari va tavsiyalar

16 ILOVA

16 Davlat idoralarining shaffofligi ("Yuksalish" harakati tomonidan 2021–2023-yillarda tadqiq qilingan)

18 Qisqartmalar

19 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

ANTI-CORRUPTION LAB

“AKSILKORRUPSIYA LABORATORIYASI” LOYIHASI

2020-yilda tashkil etilgan “Aksilkorrupsiya laboratoriyasi” loyihasi uchta tashkilotning doimiy hamkorligida faoliyat yuritadi. Bular: “Yuksalish” harakati – asosiy ijrochi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi – ma’lumotlar so‘rovi hajmini aniqlashda va ma’lumotlarni to‘plashga tayyorgarlikda qo‘llab-quvvatlaydi, “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat tashkiloti – ekspert maslahatlari bilan ta’minlaydi va korrupsiya xavflarini baholash sohasida ilg‘or jahon amaliyotini joriy etishda ko‘maklashadi.



Asosiy maqsad va vazifalar:

- ✦ Ijtimoiy muhim masalalar bo‘yicha korrupsiya xavflarini baholash uchun tadqiqot metodologiyasi va ilg‘or amaliyotini yaratish;
- ✦ Korrupsiya xavfi omillarini yoki halollikka tahdidlarni aniqlash;
- ✦ Tayyor ma’lumotlar asosidagi tadqiqot va so‘rov natijalarini birlashtirib, halollikka tahdidni aniqlash;
- ✦ Aniqlangan muammolarga yechim berish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- ✦ Fuqarolar va davlat organlarining korrupsiya xavflari va halollikka tahdidlari, ularning sabablari, ularni kamaytirish yo‘llari haqida xabardorligini oshirish;
- ✦ Fuqarolik jamiyati institutlari va faollarini korrupsiyaga qarshi kurashishga jalb etish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumotlarni to'plash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:



Ma'lumot to'plash jarayoni ikkita asosiy bosqichga bo'lindi:

◆ Kabinet tadqiqotlari – baholash tizimining huquqiy bazasini tahliliy ko'rib chiqish va media nashrlar, xalqaro tajriba, statistik ma'lumotlarni o'rganish;

◆ Birlamchi ma'lumotlar tahlili.

Qamrov va so'rov

Tadqiqot O'zbekistonning barcha hududlaridagi (**14 ta** shahar va Qoraqalpog'iston Respublikasi) **16 ta** oliy o'quv yurtlarini qamrab oldi. Obyektiv xulosalarga kelish uchun tadqiqot o'nta respondent toifasini, jami **177 kishini** qamrab oldi. Ular:

- ◆ **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi vakillari - 3**
- ◆ **rektorlar - 5**
- ◆ **prorektorlar - 15**
- ◆ **dekanlar - 14**
- ◆ **akademik kafedralar mudirlari - 14**
- ◆ **muvofiglikni nazorat qilish bo'limlari boshliqlari - 13**

- ◆ **ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari boshliqlari - 13**
- ◆ **professor-o'qituvchilar - 21**
- ◆ **talabalar - 75**
- ◆ **oliy ta'lim tadqiqotchilari va nodavlat tashkilotlar - 4.**

Intervyular Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma'muriy xodimlari, nodavlat tashkilotlar va tadqiqotchilar bilan o'tkazildi. Talabalar va professor-o'qituvchilar bilan fokus-guruh muhokamalari o'tkazildi. To'plangan barcha ma'lumotlar Google Form hujjatlariga birlashtirildi.

1-BOB. BAHOLASH UCHUN HUQUQIY/ ME'YORIY BAZA

Talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

Vazirlar Mahkamasining 824-sonli qarorida ta'lim va talabalar bilimni baholash jarayonlarini alohida yuritish, talabalar haqidagi akademik ma'lumotlarni elektron tarzda avtomatik boshqarish hamda yakuniy nazoratlarni o'tkazish maqsadida ro'yxatga olish xizmatini tashkil qilish belgilangan.

Ro'yxatga olish xizmati bir nechta funksiyalarni qamrab oladi. Jumladan:

-  talabalarining fanlarga ro'yxatdan o'tishini nazorat qilish;
-  oraliq, yakuniy baholashlar va yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazilishini nazorat qilish;
-  ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish va hk.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimini tartibga soluvchi hujjat O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentyabrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan (ro'yxatga olish raqami 3069) ¹. Mazkur buyruq bilan Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan bo'lib, unda malakaviy amaliyot, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek, magistratura va magistrlik dissertatsiyasi bosqichida baholash tizimi belgilangan. Ushbu Nizom bilan, shuningdek, joriy nazorat turlari ham belgilangan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni baholash uzluksiz baholash, oraliq va yakuniy nazoratlar (imtihonlar) orqali amalga oshiriladi.

UZLUKSIZ BAHOLASH

Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan talabalarining kurs ishlari, amaliy seminarlar va auditoriya ishlarini baholashni tartibga soluvchi qoidalar va ko'rsatmalar o'quv rejasi va o'quv dasturi bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi

to'g'risidagi Nizomda ham talabalarining bilimni nazorat qilish va baholash mezonlari, baholash natijalarini taqdim etish metodikasi belgilab berilgan.

Ba'zi hollarda ushbu hujjat asosida oliy ta'lim muassasasining ichki buyrug'i bilan o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda

¹ «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida», 26.09.2018 y, №3069. <https://lex.uz/docs/3916793>

baholash usuli tasdiqlanadi. Ayrim oliy ta'lim muassasalari (SamDU, TTA) ushbu hujjat asosida ichki baholash faoliyatiga qo'shimcha talablarni tayyorlab, tasdiqlagan.

Oraliq va yakuniy nazoratlar uchun imtihon, insho tayyorlash, nazorat darslari yoki test sinovlarini o'tkazish vaqti va shakli ushbu fanni mustaqil o'qituvchi kafedra tomonidan belgilanadi. Imtihonlar oflayn

yoki onlayn tarzda o'tkazilishi mumkin. Kafedra ma'muriyat bilan kelishilgan holda va muassasa ilmiy kengashining tasdig'i bilan imtihon topshirish muddatlari va imtihon komissiyasi tarkibini belgilaydi. Talabalar bilimni baholash natijalarini e'lon qilish formati kafedra tomonidan muassasa rahbariyati bilan kelishiladi va chop etiladi. Aksariyat OTMLar bu maqsadda HEMIS³ axborot tizimidan foydalanadi.

ORALIQ IMTIHONLAR/TESTLAR

Vazirlikning 2018-yil 26-sentyabrdagi 3069-sonli buyrug'iga asosan, talabalar oraliq bosqich bilimi nazorati o'quv dasturining ma'lum qismlarini bitirganidan so'ng, talabalarning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash uchun semestr davomida o'tkaziladigan baholash usuli sifatida belgilangan.

Oraliq nazorat har bir fanning ilmiy xususiyatiga qarab ikki marta o'tkazilishi mumkin. Oraliq nazoratning shakli va muddati kafedra tomonidan fanning xususiyatiga va ushbu fanga ajratilgan soatlar soniga muvofiq belgilanadi.

Oraliq imtihon topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va ushbu kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Semestr davomida oraliq nazorat haftasiga 2 akademik soatdan kam (tibbiyot oliy o'quv yurtlarida 4 akademik soat) bo'lgan fanlar bo'yicha o'tkazilmaydi.

Oraliq baholashda talabaning amaliyot, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlaridagi faoliyatiga

baho beriladi, uning darslardagi faol ishtiroki ham hisobga olinadi.

Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning ushbu turi bo'yicha oraliq semestr imtihonlari tegishli fanlar bo'yicha malakali o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi.

Talabalar yakuniy nazoratni topshirishlari uchun tegishli fanlardan oraliq imtihonlarni topshirishlari kerak. Oraliq nazoratdan o'ta olmagan, shuningdek, ushbu nazorat bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho olgan talabalar yakuniy nazoratga qo'yilmaydi va akademik qarzdorlar deb tasniflanadi.

Oraliq nazoratdan o'ta olmagan talabaga ma'lum muddat ichida ikki marta oraliq nazoratni qayta topshirish huquqi beriladi. Talabalar oraliq nazoratni birinchi marta topshira olmasa, ikkinchi imkoniyatga ega bo'ladi, faqat dekan va tuzilgan komissiya oraliq nazoratni qaytadan o'tkazadi.

³<https://hemis.uz/>

Oraliq va yakuniy imtihon ballari quyidagi mezonlar bilan baholanadi:

-  talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**
-  talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

-  talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

-  talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

YAKUNIY IMTIHONLAR

Yakuniy imtihon o'quv semestrining oxirida (tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qish kursi oxirida) o'tkaziladi. Talabaning bilimni imtihon qilish va baholashni o'quv mashg'ulotlarini o'tkazmagan o'qituvchi olib boradi.

Imtihonlar shakli (insho, og'zaki imtihon, test va boshqalar) o'quv rejasi bilan belgilanadi va universitet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shu maqsadda kafedra o'quv jarayoni boshlanishida fan bo'yicha o'quv rejasini ishlab chiqadi va ilmiy kengashga tasdiqlash uchun taqdim etadi. Tasdiqlangandan so'ng, ushbu dastur professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan ko'rib chiqilishi uchun universitet veb-saytida e'lon qilinishi kerak.

Kurs bitiruvchisi bo'lmagan talabalarga kuzgi semestr yakunlari bo'yicha 3 tagacha fan bo'yicha o'quv qarzi bo'lgan hollarda

talabaga bir oygacha, bahorgi semestr yakunlari bo'yicha akademik qarzlari bilan 3 tagacha fan bo'yicha muddat beriladi. Talabaga oraliq imtihon va/yoki yakuniy imtihon topshirish imkonini beriladi. Magistratura talabalariga yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan oldin bahorgi semestr natijalariga ko'ra fanni qayta topshirishga ruxsat beriladi.

To'rt va undan ortiq fan bo'yicha akademik qarzi bo'lgan talabalar qayta topshirishga ruxsat etilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan o'qishdan chetlashtiriladi. Belgilangan vaqt ichida talaba topshirishi kerak bolgan takroriy imtihonlar soni 2 martadan oshmasligi kerak.

Talaba birinchi imtihonni qayta topshira olmasa, fakultet dekani tomonidan pedagog va xodimlardan iborat komissiya

tuziladi, so'ngra qayta topshirish uchun ikkinchi imtihon belgilanadi. Talaba ikkala imtihondan o'tmagan taqdirda kafedra mudiri oliy ta'lim muassasasi rahbariga talabani o'qishdan chetlashtirish to'g'risida bayonnoma tuzadi.

Yakuniy imtihonda qatnashmagan yoki unga kiritilmagan, shuningdek, ushbu nazorat turidan "2" (qoniqarsiz) baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Kursdan qolgan talabalar tasdiqlangan kurs bo'yicha o'qishni davom ettiradi. Fanni o'zlashtirmagan talaba semestr boshidan joriy o'quv yilining tegishli semestrda shartnoma asosida o'qiydi.

Imtihon natijalaridan norozi bo'lgan talaba fakultet dekani tomonidan tuzilgan apellyatsiya komissiyasiga shikoyat qilish huquqiga ega. Apellyatsiya komissiyasi komissiya raisi va talabalarni baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan kamida to'rt nafar a'zodan iborat bo'ladi. Apellyatsiya komissiyasiga ariza natija e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida topshirilishi kerak. Talaba tomonidan berilgan apellyatsiya apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun muddatda ko'rib chiqiladi. Talaba o'z murojaatini muhokama qilinishida ishtirok etish huquqiga ega.

AXBOROT TIZIMLARI (HEMIS)

Bugungi kunda universitetlar HEMIS axborot tizimidan axborot bilan ta'minlash va o'quv jarayonini nazorat qilish uchun foydalanmoqda. Ushbu tizim universitet faoliyatini monitoring qilish mexanizmi sifatida ishlab chiqilgan. Ammo bu borada mazkur tizimning me'yoriy-huquqiy bazasi tasdiqlanmagan, ushbu tizim tobora kengayib borgani uchun maqsad va vazifalar aniq qilib belgilangani yo'q.

Prezidentning 2023-yil 3-iyuldagi 200-son qarori ⁴ bilan oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini o'zgartirishni jadallashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, uning doirasida 2023-yilning

sentyabrigacha oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar o'qituvchilari ta'limi, fan va innovatsiyalar sohasida oliy, kasb-hunar va o'rta maxsus ta'lim sifati monitoringini ta'minlovchi yagona integratsiyalashgan raqamli ekotizim shakllantirish uchun "Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish" ⁵ topshirig'i berildi.

Ayni paytda HEMIS axborot tizimi uchun me'yoriy-huquqiy baza mavjud emas, bu korrupsiya/halollik uchun katta xavf hisoblanadi, chunki tizimga kimlar kirishi (va shuning uchun baholarni boshqarishi mumkin) haqida rasmiy tartib mavjud emas.

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/6518517>

⁵ Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida, 03.07.2023 yildagi PQ-200-son, <https://lex.uz/docs/-6518515>

2-BOB. OLIY TA'LIM BAHOLASH TIZIMIDAGI NOHALILLIK MUAMMOLARI, ULARNING SABABLARI VA TAVSIYALAR

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovlar korrupsiya/manipulyatsiyaning tizimli ko'lamini emas, balki asosiy jihatlarini ko'rsatdi. Ushbu muhim bosqich baholashda ehtiyotkorlikni talab etdi, bunda muayyan talabalarga dars bermaydigan pedagoglar tomonidan yakuniy imtihonlarni o'tkazish amaliyoti xavflarni kamaytirishga qaratilgan qadamdir.

Biroq tizimda quyidagi sabablarga ko'ra talabalar baholarini manipulyatsiya qilishda kamchiliklar saqlanib qolmoqda:




HEMIS elektron tizimining unga kim kirishi mumkinligini tartibga solish uchun tegishli tizimning yo'qligi, pedagoglarning HEMIS bilan bog'liq vazifalarni boshqalarga, shu jumladan talabalarining o'zlariga topshirish imkoniyati hamda o'qituvchilar qaydnomalarining dekanatlarda saqlanishi tufayli baholarni o'zgartirish mumkinligi.



Na pedagogik jamoada, na talabalar orasida baholar faqat iqtidor/qobiliyatga qarab belgilanishi tamoyiliga qat'iy rioya etish yo'q va baholarni manipulyatsiya qilish hech kimga bevosita zarar yetkazmasligiga ishonch mavjud.

RESPONDENTLAR FIKRIGA KO'RA, ENG KENG TARQALGAN KORRUPSIYA XAVFLARI:



Ta'limdagi korrupsiyaga faqat texnokratik choralar, masalan, baholashda ixtiyoriylikni kamaytirish, imtihonlarni kuzatish, nomaqbul xatti-harakatlarga sanksiya qo'llash va hokazolar bilan qarshi turish yoki oldini olish mumkin emas. Umuman olganda, ta'lim sifati o'qituvchilarga hurmat va qobiliyatga qarab baholash tamoyilining ishlashiga bog'liq. Bu hurmat,

o'z navbatida, pedagoglarning kasbiy halolligi va malakasidir.

Baholash faqat akademik natijalarga asoslangan bo'lishi kerakligi haqida yetarlicha keng konsensus mavjud bo'lmasa, talabalarni baholash tizimi to'g'ri ishlamaydi. Bunday konsensus yo'q joyda manipulyatsiyani osonlikcha normallashtirish mumkin va bunga, albatta,

korruptsiya sifatida qaralmaydi, bu shunchaki o'quvchilarning bosimi hamda o'qituvchilar va rahbariyatning befarqligi yoki shunchaki yashirin roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. To'g'ri konsensus/madaniyatni yaratish/ta'minlash "korruptsiyaning oldini olish"dan ko'ra ko'proq narsani talab qiladi. Ballarni manipulyatsiya qilish hech kimga zarar keltirmasa, bunga erishish qiyin.

KORRUPSION XATTI-HARAKATLAR SABABCHILARI KIM?



76.7%

Talabalar



34.3%

O'qituvchilar



25.4%

Talabalarning
qarindoshlari



15.6%

OTM ma'muriyati

Respondentlarning deyarli 28%i talabalar (va ularning qarindoshlari) bo'lib, ular qo'yilgan past bahoni yuqori bahoga o'zgartirish maqsadida o'qituvchiga bosim o'tkazishini ta'kidladi.

Quyidagi jadvalda oliy ta'lim muassasalarida talabalar baholari bilan manipulyatsiyani osonlashtiradigan yoki rag'batlantiradigan institutsional va amaliy baholash tizimlari muammolari,

tadqiqot jarayonida aniqlangan halollik tamoyillarining amaldagi buzilishlari va ushbu muammolarni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlar yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

1-XAVF

Talabalar yoki ularning qarindoshlari baholarni manipulyatsiya qilish evaziga o'qituvchilarga norasmiy to'lovlar / imtiyozlar berishadi

Respondentlarning o'rtacha 74%i baholar ta'sir ostida qo'yilgan deb hisoblaydi (prorektorlarning 87%i, dekanlarning 43%i, o'quv bo'limlari mudirlarining 71%i, o'qituvchilarning 67%i, talabalarning 83%i, sifat nazorati bo'limlari mudirlarining 54%i, muvofiqlikni nazorat qilish bo'limlari rahbarlarining 69%i)

Pedagoglarning:

- 72,2 %i norasmiy to'lov evaziga bahoni o'zgartirmasligini aytdi.

XAVF OMILLARI

Sof operatsion mezonlardan boshqa mezonlar asosida baholashning barcha asosiy manfaatdor taraflar tomonidan amaliy tan olinishi

Korruptsiya sabablari:

44,4% - korruptsiyaga qarshi kurashish choralari haqida xabardor emasligi va korruptsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida ariza berish va xabar berish mexanizmining yo'qligi (talabalarning 19,3 foizi), 22,2% - korruptsiyaviy xatti-harakatlar uchun jazo choralari yetarli emasligi, 16,7% - Korruptsiya to'g'risidagi Qonunga, o'quvchilarni xavf-xatarlar va sanksiyalar to'g'risida

TAVSIYALAR

Talabalar, ota-onalar, o'qituvchilar va OTM rahbariyatining qo'yilgan baholar to'g'riligiga (halolligiga) bo'lgan munosabatini, ularni o'zgartirish uchun qanday choralar ko'rishini aniqlash uchun yana so'rovlar o'tkazish;

Pedagoglarning halolligini oshirish;

Yakuniy imtihonlarni tashqi shaxslar tomonidan (boshqa hududdan, mustaqil imtihon komissiyasi yoki shunga o'xshash ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda) belgilash/tasdiqlash;


- 27,8% respondent korrupsiya mavjudligini ta'kidladi: 50% hollarda xizmat ko'rsatish/shaxsiy manfaat (talabalarining 28% buni aytdi), 38,9% sovg'a sifatida (talabalarining 44%i), 16,7%i universitetga yordam sifatida (42% talabalar), 5,6%i pul mukofoti sifatida (15,8% talabalar)

xabardorligini oshirish / xabardor qilish talablariga rioya qilmaslik (talabalarining 36,8%). Talabalarining 22,8 foizi pedagoglar ish haqining pastligini ta'kidladi.


Akademik halollik monitoringini ochiq va shaffof mezonlar asosida (masalan, biror imtihonni tasodifiy tanlab olish) va natijalarni omma uchun e'lon qilgan holda amalga oshirish.

TALABALAR YOKI ULARNING QARINDOSHLARI MANIPULYATSIYA ORQALI O'QITUVCHILARGA NORASMIY TO'LOVLAR QILISHI:

RESPONDENTLARNING 74% I BAHOGA TA'SIR O'TKAZISHGA QUYIDAGILAR KO'PROQ HARAKAT QILADI, DEB HISOBLAYDI:



RESPONDENTLARNING 27,8% I BAHONI O'ZGARTIRISHGA QUYIDAGI YO'LLAR ORQALI TA'SIR O'TKAZISH MUMKINLIGINI TA'KIDLADI:



VAHOLANKI

O'qituvchilarning 72,2% i turli sovg'alar yoki pora olish orqali baholarni o'zgartirmasliklarini ta'kidladi.

2-XAVF

Baholash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning qaydnoma ma'lumotlariga kirish kalitlari boshqa shaxslarga (dekanatlar yoki boshqalarga) taqdim etiladi. HEMIS tizimidagi o'zgartirilgan baholar


XAVF OMILLARI

HEMIS tizimining reytinglarni manipulyatsiya qilish uchun zaifligi: HEMIS tizimini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi, tizimga kimlar kirishi mumkinligi haqidagi qoidalar va hokazo.

TAVSIYALAR

HEMIS tizimiga kirish uchun aniq qoidalar o'rnatish va samarali nazoratni ta'minlash uchun barcha kiritilgan ma'lumotlarga login berish.

RESPONDENTLARNING FIKRIGA KO'RA, HEMIS TIZIMINING KORRUPSIYA XAVFINI OLDINI OLIISHDA SAMARADORLIGI:



3-XAVF

Plagiatlik keng tarqalganligi

Plagiatlik nohalillok ifodasi sifatida

XAVF OMILLARI

Pedagoglarga xalqaro nashrlarda tez-tez maqolalar chiqarish talabining borligi va buning talabalarni baholashga ta'siri

Plagiatlikning talabalar va pedagoglar orasida tizimli va normal holatga aylanib qolganligi

Plagiatlikni tekshiruvchi platforma yaratilgan, ammo u to'laqonli emas, chunki faqat doktorantlar (maqolalar va ilmiy ishlarni tekshirish) uchun amal qiladi, ammo bitiruvchi talabalar uchun emas. Platforma o'zbek tilida emas, tijorat asosida ishlaydi. Rus va ingliz tillaridagi kontent deyarli plagiatlik uchun tekshirilmaydi.

Platforma barcha universitetlar uchun hamyonbop emas, faqat matnlarni plagiatlikka tekshirish uchun mablag' to'lashlari kerak.

TAVSIYALAR

Pedagoglarga kasbdagi halollikning ahamiyati va nohalollikning oqibatlari haqida ma'lumot berish

Pedagoglarga maqola chop etish talablarini kamaytirish

Plagiatlikni tekshirish uchun rus, ingliz va boshqa tillardagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli yagona ma'lumotlar bazasini yaratish

Talabalarining plagiatlikka yo'l qo'ymasligi uchun uning oqibatlari haqida tushuntirish va aniq qoidalarini ishlab chiqish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGINING TAVSIYALARI:


Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish – "HEMIS" platformasida inson omiliga bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi sababli platformani himoyalash choralari ko'rish

OTMlarda oraliq va yakuniy imtihonlar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini baholashda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash maqsadida imtihonlar o'tadigan auditoriyalar va o'quv laboratoriyalarini videokuzatuv kameralari

bilan to'liq jihozlash hamda masofaviy monitoring qilish imkoniyatlarini yaratish

Yakuniy imtihonlar paytida fribgarlikka urinishlarga qarshi qat'iy choralarni nazarda tutuvchi ichki etika siyosatini kuchaytirish

KORRUPSIYA XAVFINI KAMAYTIRISH CHORALARI. RESPONDENTLAR FIKRIGA KO'RA:



ILOVA

DAVLAT IDORALARINING SHAFFOFLIGI ("YUKSALISH" HARA-KATI TOMONIDAN 2021-2023-YILLARDA TADQIQ QILINGAN)

Nº	Davlat idorasi	Normativ-huquqiy bazaning topilishi	Rasmiy xat raqami
1.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvi orqali topilmaydi. Ichki buyruqlar keng jamoatchilikka oshkor qilinmagan	24.07.2023dan 03-07/3469-sonli 06.06.2023dan 335/23-sonli
2.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvi orqali topilmaydi. Ichki buyruqlar keng jamoatchilikka oshkor qilinmagan	22.03.2023dan 03-07/2485-sonli 24.07.2023dan 03-09/3475-sonli
3.	Toshkent shahar hokimligi, viloyatlar hokimliklari	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvi orqali topilmaydi. Ichki buyruqlar keng jamoatchilikka oshkor qilinmagan	18.08.2022dan 03-07/3680-sonli
4.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (sobiq Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2022-yilgi Ma'muriy islohotdan so'ng Xalq ta'limi vazirligi bilan birlashtirilgan)	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni topish qiyin, kompyuterda o'qiladigan emas /bo'sh hujjatlar	28.03.2022dan 03-07/1241-sonli 08.06.2022dan 705/22-sonli
5.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvi orqali topilmaydi.	10.05.2022dan 03-07/1964-sonli
6.	O'zbekiston Respublikasi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi (2022-yilda Ma'muriy islohot natijasida tugatilgan)	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvi orqali topilmaydi	28.03.2022dan 03-07/1242-sonli
7.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (sobiq Xalq ta'limi vazirligi)	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvi orqali topilmaydi.	24.03.2021dan 01-09/2130-sonli

Murojaat mavzusi	Izoh	So'ralgan ma'lumotlarni taqdim etishga tayyorlik
Ijtimoiy so'rovda va birlashtirilishi mumkin bo'lgan xodimlar haqida yordam so'ralgan xat	O'z vaqtida	Past
Savollarga javoblar so'ralgan xat	Katta kechikish bilan, 30 tadan 2 ta savolga javob berildi	
Ma'lumot so'rab xat	O'z vaqtida	Yaxshi
Ijtimoiy so'rovda va birlashtirilishi mumkin bo'lgan xodimlar haqida yordam so'ralgan xat	O'z vaqtida	
Ijtimoiy so'rovda yordam so'ralgan xat	O'z vaqtida	Yaxshi
Ijtimoiy so'rovda va birlashtirilishi mumkin bo'lgan xodimlar haqida yordam so'ralgan xat	O'z vaqtida	Past
Ma'lumot va hududlarda ijtimoiy so'rovda yordam so'rab qo'shimcha xat	Kechikish bilan berildi, to'liq hajmda emas. Rasmiy javob Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi aralashganidan keyin bir oy ichida berildi	
Ma'lumot so'ralgan xat	O'z vaqtida, javob yetarlicha bo'lmagan, jamoatchilik muhokamasida ishtirok etilmagan	Past
Ijtimoiy so'rov, ma'lumot va xodimlarni birlashtirishda yordam so'ralgan xat	O'z vaqtida, yetarlicha emas. Mutaxassis birlashtirildi, lekin u hech qanday ma'lumot bermadi va jamoatchilik muhokamasida qatnashmadi	Past
Ijtimoiy so'rovda yordam so'ralgan xat	O'z vaqtida	Yaxshi

QISQARTMALAR

OTM – oliy ta'lim muassasasi

HEMIS – Higher Education Management Information System (Oliy ta'lim boshqaruvi axborot tizimi)

SamDU – Samarqand davlat universiteti

TTA – Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

01

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, 2020-yil 7-avgustda Senat tomonidan ma'qullangan.

02

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekistonning ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269 Farmoni.

03

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-141 Farmoni.

04

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60 Qarori.

05

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-61 Qarori.

06

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyulda "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200 Qarori.

07

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori.

08

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustda 3069-son buyrug'i.

09

O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida talabalarni baholash mexanizmini, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquqiy maqomi, vakolatlari va majburiyatlarini belgilovchi qonunchilik bazasi 120 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi.

